

GAZETADA REPORTAJ JANRI

¹Allamuratov N.E.

²Shamuratova S.

¹QDU. Amaliy filologiya kafedrası docent PhD.

²QDU. Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistika fakulteti Noshirlik ishi va muharrirlik yo'nalishi 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14163062>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishimiz reportaj janri tiliga qaratilgan. Reportaj janri tilining nazariy qarashlari va bugungi kunda reportaj janrining qaysi janrlar bilan konvergentlashuvi yoritib berilgan. Reportaj janriga qo'yilgan talablar buzilgan yoki buzilmagan holatlar "Ma'rifat" gazetasi misolida yoritildi.

Kalit so'zlar: Ma'rifat gazetasi, reportaj, konvergentlashuv, sintezlashuv, investitsiya, intervyu, yangilik.

Reportaj so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, „xabar bermoq“, „xabardor qilmoq“ degan ma'nolarni anglatadi. Hozirgi vaqtda reportaj ikki ma'noni bildiradi: radio va televideniye orqali voqea sodir bo'lgan joydan olib borilayotgan eshittirish yoki ko'rsatuv; vaqtli matbuotda yoritilgan mahalliy mavzulardagi qisqa xabar va axborot. O'zbek tilining izohli lug'atida shunday ta'rif berilgan: „Reportaj - matbuot, radio, televideniya: sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan olib boriladigan mahalliy mavzulardagi xabar, maqola. Reportaj aks ettirayotgan obekti nuqtai nazaridan voqea reportaji, muayyan mavzuga bag'ishlangan reportaj, muammoli reportaj, reportaj-sharh kabilarga bo'linadi. Reportaj qaysi ommaviy axborot vositasida berilishiga qarab gazeta reportaji, jurnal reportaji, radioreportaj va telereportaj kabi xillarga bo'linadi. Reportajda voqea joyi tasviri ham muhim o'rin egallaydi. Joy tasviri va tantanavor ruhni berish uchun obrazli ifodalar, ta'sirchan-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar, o'xshatishlar, sifatlashlardan unumli foydalaniladi. Kishilar bilan muloqotning jonliligini ta'minlash maqsadida dialoglar ham ishlatiladi, voqea qatnashchilarining nutqi beriladi. Chunki reportajda qahramonlar so'zi muhim ahamiyatga ega. Yangilik reportajning asosi hisoblanadi. Ma'lum voqea-hodisa, faktlar hamda tezkorlik bilan voqea sodir bo'lgan joydan tayyorlangan material reportajning mag'zini tashkil etadi. Unda voqea joyi tasvirlanadi, jonli muloqotlar beriladi, ko'pincha, materiallarda tantanavorlik aks etadi. Reportajning asosini axborot tashkil etadi va xabar berish asosiy o'rinni egallaydi, voqea-hodisa, faktlar tahlil qilinmaydi.

Reportaj ko'p jihatdan ocherkka yaqin turadi. Ocherk ham, reportaj ham dalil va voqealarning guvohi bo'lgan kishi tomonidan yoziladi. Lekin ocherk o'zining publitsistik ruhi, chuqur fikr yuritish va tahlili bilan reportajdan farq qiladi. Reportajda esa ortiqcha tasvir bo'lmasligi kerak, u yorqin va lo'nda bo'lishi zarur.

Reportajning o'ziga xosligi uning tili va uslubida ham ko'rinadi. U jonli, hayajonli tarzda yozilganligi uchun ham gazetxonga tez ta'sir qiladi. Reportaj dabdabali, balandparvoz so'zlar bilan yozilsa, uning ta'sirchanligi yo'qoladi. Shuning uchun ham jurnalistlar reportaj tili va uslubiga alohida e'tibor bilan qaraydilar.

Reportajda qahramonlar xarakterini ochish emas, balki voqeani jonli, tantanavor tasvirlash muhimdir. Reportaj janrining xususiyatlaridan biri shuki, unda ta'sirchan, ko'p ma'noli so'zlar, so'z birikmalari ko'p ishlatiladi. Misol tariqasida Ma'rifat gazetasidagi reportajlardan qisqacha keltirib o'tamiz. Jumladan ma'rifat gazetasining 28.02.24 sonida

Shahnoza Yangiboyevaning: “34 yil investitsiya kutgan maktab” reportaji ko‘zga tashlanadi. Reportaj rasmlar bilan boyitilgan, ahamiyatlisi tanqidiy reportaj yozilgan. Unda Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumanidagi 22-sonli maktab 34 yildan buyon ta‘mirtalab holatga kelib qolgan. Bu yerda 115 nafar o‘quvchiga 30 nafar o‘qituvchi ta‘lim-tarbiya berib kelmoqda. Asosiysi o‘qituvchilarning 15 nafarigina oliy ma‘lumotli, qolganlari esa o‘rta ma‘lumotli.

Reportaj janrida har doim uchraydigan holat, intervyu bilan ham bu reportajda uchrashamiz. Shu maktabning matematika fani o‘qituvchisi Chorshanbi Boysoatov maktab ahvoli, unga kelib ketuvchi tekshiruvchilarning, kamchiliklarni ko‘rmay, ko‘rsada nazarga ilmay ketayotganligidan shikoyat qiladi. Reportaj tiliga keladigan bo‘lsak, quruq faktlar bilan qolmay, “Tanasi boshqa dard bilmas” iborasi bilan boshlab, ta‘sirchanlikni yanada oshirgan.

Nazira Boymuratovaning “Qorayantoq faxri” reportajida, oddiy ovul fuqarolarining yashash tarzi keltiriladi. Bu reportaj tili ham lug‘aviy shakllar bilan boyitilgan, ya‘ni: “Bolajonlar, yuraklarim, shirintoylar” kabi erkalash-kichraytirish til vositalaridan foydalanilgan.

Nargiza Rixsiyevaning “Kelajak g‘unchalari” reportajida, Yunusobod tumani 1-maktabgacha ta‘lim tashkilotida o‘tkazilgan tadbirdan hikoya qilinadi. Bu yerda 16 nafar tarbiyachi 190 nafar bolaga tarbiya berib kelayotganligi aytiladi. Bu reportajda ham erkalash-kichraytirish uslublaridan foydalanilgan, kichkintoylar so‘zi qo‘llanilgan. Reportaj janri tilini o‘rganish mobaynida quyidagicha xulosaga keldik.

1. Reportaj janri media tilining barcha jabhalaridan keng ko‘lamda foydalana oladi.
2. Reportaj janri orqali soha terminlari kirib kelishi kuchaygan.
3. Reportaj janri bugungi kunda yangilik va intervyu janri bilan sintezlashib konvergent tushunchaga aylanib bormoqda.

References:

1. Ma‘rifat gazetasi 28.02.2024 soni
2. Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari. Toshkent O‘zbekiston 2019.
3. Ixtisoslashgan jurnalistika. Toshkent O‘zbekiston 2019.
4. Medialingvistika va tahrir. Toshkent O‘zbekiston 2019.
5. Allamuratov N.E. The formation of legal terms in Karakalpak language: derivation and compound legal terms. Derivational and compound legal terms: International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester. 25th Oct. – England, 2022. – P. 197-199. <https://conferencea.org>
6. Allamuratov N.E. Layers of legal terms in the Karakalpak language. International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS). – India, 2020. – P. 99-107. (Impact Factor: SJIF-2022. 8.186. № 23).
7. Allamuratov N.E. Assimilated legal terms in the karakalpak language. International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science Hosted Online from Vienna. October 20th. – Austria, 2022. – P. 167-170.
8. Palvanov A., Allamuratov N.E. Some considerations Concerning the Organization of Forensic Linguistic Expertise. Science and Education in Karakalpakstan. – Nukus, 2021. - №2(17). – P. 207-209. (10.00.00 №23).

9. Palvanov A., Allamuratov N.E. Integration in the Practical Fields of Linguistics and Law. Science and Education in Karakalpakstan. – Nukus, 2021. - №2(17). – P. 207-209. (10.00.00 №23).
10. Allamuratov N.E. Қорақалпоқ тилида компонентли юридик терминларнинг тузилиши. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. - №6. – Б. 104-108. (10.00.00. №14).
11. Allamuratov N.E. Қорақалпоқ тилида компонентли юридик терминларни боғловчи воситалар. Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2021.- №1. – Б. 133-136. (10.00.00. №3)
12. Ma'rifat gazetasi 06.03.2024. soni